

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025  
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
101 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish .....                              | 12  |
| <b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>                                                                                                |     |
| Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari .....                                                         | 19  |
| <b>Usmonov Abbos Valijon o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises .....                                                   | 23  |
| <b>Sheraliyev Axror Sodiqovich</b>                                                                                                       |     |
| Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish .....                              | 30  |
| <b>Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi</b>                                                                 |     |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari .....                           | 37  |
| <b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>                                                                                                     |     |
| Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi .....                                             | 42  |
| <b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari .....                                | 46  |
| <b>Kurbonova Raxima Jamshedovna</b>                                                                                                      |     |
| Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati .....                             | 49  |
| <b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>                                                                                                   |     |
| Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar .....                                 | 54  |
| <b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>                                                                                                      |     |
| Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка .....                                                  | 58  |
| <b>Юсуфов Асфандиёр Элдор угли</b>                                                                                                       |     |
| Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari .....                                        | 63  |
| <b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>                                                                                                 |     |
| Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi .....                                                 | 67  |
| <b>Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich</b>                                                                                               |     |
| "Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik ..... | 73  |
| <b>N.D.Maxmudova</b>                                                                                                                     |     |
| Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili .....                   | 77  |
| <b>Iskandarov Kudrat Shuxratovich</b>                                                                                                    |     |
| Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....                                                | 83  |
| <b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>                                                                                               |     |
| Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi .....               | 87  |
| <b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>                                                                                                  |     |
| Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar .....                                             | 91  |
| <b>Qosimova Lola Sultanovna</b>                                                                                                          |     |
| Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari .....                        | 96  |
| <b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>                                                                                                 |     |
| Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar .....  | 100 |
| <b>Rajabov Alibek Xushnadbekovich</b>                                                                                                    |     |



# INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR

## Rajabov Alibek Xushnudbekovich

Ma'mun-Universiteti NTM "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, PhD

Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID: [0000-0002-5252-6456](https://orcid.org/0000-0002-5252-6456)

Email: [alibek.rajabov@gmail.com](mailto:alibek.rajabov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni sistematik adabiyot tahlili (SLR) va PRISMA metodologiyasiga asoslangan holda o'rganadi. Kirish qismida global tendensiyalar (raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va post-COVID tiklanish) ta'kidlanib, adabiyotlar sharhida so'nggi yillarda nufuzli ilmiy bazalarda chop etilgan bir qancha tadqiqot ishlari tahlil qilinadi. Metodologiya bo'yicha qidiruv, saralash va tematik sintez orqali asosiy savollar hal qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qiyinchiliklar tengsizlikning kuchayishi (20-30% ish o'rinlari yo'qolishi), ekologik bosim (investitsiyalar 3-5% ga kamayishi) va moliyaviy to'siqlardan iborat, imkoniyatlarsa yashil transformatsiya (1 million tonna chiqindini qayta ishlash) va raqamli integratsiya (ish o'rinlarini 7-14% ga oshirish) orqali ochilmoqda. Xulosada mintaqaviy siyosatni shakllantirish uchun inkluziv yondashuvlar va empirik tadqiqotlar tavsiya etiladi. Tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb bo'lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, imkoniyatlar, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, rezilientlik, inkluziv o'sish.

**Abstract:** This article examines the challenges and opportunities in the socio-economic development of regions amid the formation of an innovation economy, employing a systematic literature review (SLR) and PRISMA methodology. The introduction highlights global trends (digital transformation, ecological sustainability, and post-COVID recovery), while the literature review analyzes several research publications from recent years in reputable scientific databases. Through the methodology, encompassing search, screening, and thematic synthesis, key research questions are addressed. The findings reveal that challenges encompass the intensification of inequality (20-30% job losses), ecological pressures (3-5% decline in investments), and financial constraints, whereas opportunities emerge via green transformation (recycling of 1 million tons of waste) and digital integration (7-14% increase in employment). The conclusion proposes inclusive approaches and empirical investigations to inform regional policy formulation. The study holds particular relevance for developing countries and contributes to the Sustainable Development Goals (SDGs).

**Key words:** innovation economy, regional development, socio-economic challenges, opportunities, digital transformation, green economy, resilience, inclusive growth.



**Аннотация:** Данная статья исследует вызовы и возможности социально-экономического развития регионов в условиях формирования инновационной экономики на основе систематического обзора литературы (SLR) и методологии PRISMA. В разделе введения подчеркиваются глобальные тенденции (цифровая трансформация, экологическая устойчивость и пост-COVID восстановление), в то время как обзор литературы анализирует несколько исследовательских работ, опубликованных в престижных научных базах данных в последние годы. Методология, включающая поиск, отбор и тематический синтез, позволяет решить ключевые исследовательские вопросы. Результаты свидетельствуют о том, что вызовы включают усиление неравенства (потеря 20–30% рабочих мест), экологическое давление (снижение инвестиций на 3–5%) и финансовые барьеры, в то время как возможности открываются посредством зеленой трансформации (переработка 1 миллиона тонн отходов) и цифровой интеграции (увеличение занятости на 7–14%). В заключении рекомендуются инклюзивные подходы и эмпирические исследования для формирования региональной политики. Исследование особенно актуально для развивающихся стран и способствует достижению Целей устойчивого развития (ЦУР).

**Ключевые слова:** инновационная экономика, региональное развитие, социально-экономические вызовы, возможности, цифровая трансформация, зеленая экономика, резилиентность, инклюзивный рост.

## KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaygan bir paytda mintaqalar bilim asosidagi iqtisodiyotga o'tishda yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda kuzatilayotgan tendensiyalar, jumladan global iqtisodiy o'sishning notekisligi, inflyatsiya bosimi va ekologik barqarorlikka oid muammolar mintaqaviy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (Ayres va boshq., 2025). Bunday sharoitda innovatsion potensial mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omili bo'lib, uning tadqiqi muammolari va istiqbollari ilmiy jihatdan chuqur tahlilni talab etadi (Yan va Shkarina, 2023).

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy qiyinchiliklar orasida tengsizlikning kuchayishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarning cheklanganligi kabi masalalar ajralib turadi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz yukining oshishi, savdo tarangliklari va COVID-19 pandemiyasi oqibatlari iqtisodiy o'sishni sekinlashtirib, mintaqaviy inklyuzivlikni ta'minlashni qiyinlashtirmoqda (UNDESA, 2025). Bundan tashqari, iqtisodiy geografiya sohasida ekologik barqarorlikka oid global muammolar tezlashgan sur'atda rivojlanmoqda, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni boshqarish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni dolzarb vazifaga aylantirmoqda (Tartaruga va boshq., 2024). Shu bilan birga, innovatsion omillarning dinamik o'zaro ta'siri mintaqaviy iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, agar ular samarali boshqarilmasa (Pyo va Choi, 2025).

Biroq, ushbu qiyinchiliklar bilan bir qatorda innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqalar uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mintaqaga asoslangan siyosatlar va ijtimoiy innovatsiyalar orqali mintaqaviy transformatsiyani ta'minlash, shuningdek, global o'zgarishlar fonida yangi imkoniyatlarni ishga solish mumkin (OECD, 2025). Masalan, ijtimoiy iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida qashshoqlikni kamaytirish, sog'liqni saqlash, ta'lim va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan yondashuvlar mintaqaviy rivojlanishning yangi bosqichini ochmoqda (OECD Legal Instruments, 2022). Shu nuqtai nazardan, mintaqalar resurs potensialini kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro bog'liqliklarni chuqurroq tushunish orqali innovatsion rivojlanishga erishishi mumkin (Zaytsev va boshq., 2023).

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqalar rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida reziliientlik (bardoshlilik) va barqarorlikka urg'u berish ko'zga tashlanadi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi ta'sirida mintaqaviy reziliientlik tadqiqotlari ko'paygan bo'lib, bu jarayon mintaqalarning resurslarni qayta taqsimlash va moslashuvchanligini kuchaytirishga qaratilgan (Turgel va Chernova, 2024). Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya sohasida inkluziv eko-innovatsiyalar va ierarxik mintaqaviy innovatsion tizimlar (HRIS) kabi yangi modellar taklif etilmoqda, ular mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va ekologik barqarorlik muammolarini hal qilishga yordam beradi (Tartaruga va boshq., 2024). Afrika mintaqalari misolida esa, raqamli bo'linish va texnologik qoloqlik innovatsion iqtisodiyotga o'tishni qiyinlashtirayotgani ta'kidlanmoqda, ammo Afrika kontinental erkin savdo zonasi (AfCFTA) kabi integratsiya jarayonlari yangi imkoniyatlar yaratmoqda (UNCTAD, 2024).

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy qiyinchiliklar orasida global inqirozlar va tengsizlikning kuchayishi ajralib turadi. Pandemiya ta'sirida mintaqaviy rezilientlik tadqiqotlari ko'paygan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz yukining oshishi, savdo tarangliklari va ekologik bosim iqtisodiy o'sishni sekinlashtirmoqda (Kaftan va boshq., 2023). Masalan, Qozog'istonning Aktobe mintaqasi misolida atrof-muhitni muhofaza qilish uchun zarur investitsiyalarning yetishmasligi (joriy darajadan 14 baravar kam) va resurslarning cheklanganligi ta'kidlangan, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni buzmoqda (Medeu va boshq., 2025). Xitoy tajribasida esa, yuqori emissiya va resurs sarfi bilan bog'liq ekologik qiyinchiliklar, shuningdek sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga salbiy ta'siri kabi texnologik xatarlar mavjud, bu esa mintaqaviy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin (Hepburn va boshq., 2023). Rossiya mintaqalari bo'yicha tahlillarda subsidiyalangan va depressiv mintaqalarning ko'pligi, xorijiy investitsiyalarning kamayishi va soliq tizimining fiskal xarakteri iqtisodiy polarizatsiyani kuchaytirayotgani qayd etilgan (Morozova va boshq., 2021). Bundan tashqari, global tendensiyalarda raqamlashtirish va intellektualashtirish jarayonlari katta ishdan bo'shatish va ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda (Stukalo va Simakhova, 2021). Yevroosiyo va Afrika mintaqalarida siyosiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va infratuzilma qoloqligi iqtisodiy rivojlanishni to'xtatmoqda (IMF, 2025).

Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqalar uchun katta imkoniyatlar mavjud, xususan ijtimoiy innovatsiyalar va yashil texnologiyalar orqali. Mintaqaviy innovatsion tizimlarning "qayta ixtiro qilinishi" katta jamiyat muammolarini hal qilishga yordam beradi, masalan, iqlim o'zgarishi va tengsizlikka qarshi kurashda (Tartaruga va boshq., 2024). Rossiya mintaqalari uchun raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish "og'riqli nuqtalar"ni bartaraf etish va barqaror o'sishni ta'minlash imkoniyatini beradi, bu esa SWOT tahlili orqali tasdiqlangan (Buyanova va boshq., 2024). Xitoyda esa, xizmatlar sektori va sun'iy intellektga o'tish yangi o'sish drayverlarini yaratmoqda, bu esa "yangi globallashuv" va yashil iqtisodiyot orqali mintaqaviy rivojlanishni kuchaytirishi mumkin (Hepburn va boshq., 2023). Afrika uchun AfCFTA va mintaqaviy savdo integratsiyasi savdo xarajatlarini kamaytirish va kichik hamda o'rta korxonalarni (KKO) qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi, bu esa 80% ish o'rinlarini ta'minlaydigan sektorlar uchun muhim (UNCTAD, 2024). Global tendensiyalarda inkluzivlik va yashil iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratish hamda sog'liqni saqlashni yaxshilash imkonini beradi (Stukalo va Simakhova, 2021). Bundan tashqari, post-COVID tiklanish jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar (masalan, IoT) KKOlarning mahsuldorligini oshirishi va SDGlarga erishishga yordam berishi mumkin (Kaftan va boshq., 2023). Yevropa va Osiyo mintaqalarida savdo integratsiyasi va strukturaviy islohotlar innovatsion o'sishni ta'minlash imkoniyatini bermoqda (Ramdas va Mahmumd, 2022).


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud adabiyotlarni sistematik tahlil qilishga asoslangan bo'lib, kirish qismida belgilangan global tendensiyalar (raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va post-pandemiya tiklanish) hamda adabiyotlar tahlilida aniqlangan asosiy muammolar (tengsizlik kuchayishi, resurslar cheklanganligi va innovatsion tizimlarning dinamikasi)dan kelib chiqib shakllantirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – so'nggi yillarda nufuzli ilmiy manbalarda chop etilgan ishlar orqali mintaqaviy rivojlanishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni ilmiy asosda baholash va umumlashtirishdir. Ushbu yondashuv sistematik adabiyot tahlili (systematic literature review – SLR) metodologiyasiga asoslangan bo'lib, u mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarning to'liq va xolis tahlilini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) yo'riqnomasiga muvofiq tuzilgan bo'lib, bu standart sistematik tahlillarning shaffofligi va takrorlanuvchanligini ta'minlash uchun ishlatiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillardagi innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqalar rivojlanishi global inqirozlar (COVID-19 pandemiyasi, iqlim o'zgarishi va savdo tarangliklari) ta'sirida rezilientlik (bardoshlilik) va barqarorlikka urg'u berish bilan xarakterlanadi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlar mintaqalarida investitsiya o'sishi sekinlashgan bo'lib, bu iqtisodiy o'sishni 5–8 foizga kamaytirgan, xususan, Xitoy va Yaqin Sharq mintaqalarida neft narxlarining pasayishi va siyosiy beqarorlik tufayli (World Economic Forum, 2022). Shu bilan birga, ijtimoiy iqtisodiyot innovatsiyalari (masalan, yashil transformatsiya va raqamli inkluzivlik) orqali mintaqaviy rivojlanishni kuchaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda, xususan, Yevropa va Amerika mintaqalarida, bu esa ish o'rinlarini yaratish va tengsizlikni kamaytirishga yordam bermoqda (OECD, 2020). Tahlil natijasida aniqlanganki, mintaqalar rivojlanishining 70–80 foizi mahalliy siyosat va stakeholderlar hamkorligiga bog'liq bo'lib, bu global tendensiyalarni mahalliy kontekstga moslashtirishni talab etadi (Guzman va boshq., 2024).



1-rasm. Mintaqaviy rivojlanishga global omillarning salbiy ta'siri (%)

Mintaqalar orasida iqtisodiy o'sish notekis bo'lib, rivojlanayotgan mintaqalarda qarz yukining oshishi va savdo tarangliklari iqtisodiy o'sishni sekinlashtirib, ijtimoiy inkluzivlikni buzmoqda. Masalan, Lotin Amerikasi va Karib havzasida investitsiya darajasi EMDElar orasida eng past bo'lib, bu ish o'rinlarini yo'qotishga (pandemiya davrida 20–30 foiz) va tengsizlikning kuchayishiga olib kelgan (Kasyanenko va boshq., 2023). Shu bilan birga, avtomatlashtirish va raqamlashtirish mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, ishdan bo'shatishni oshirishi mumkin, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda 30–40 foiz ishchilar kasbni o'zgartirishga majbur bo'ladi.

Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari mintaqaviy rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, Osiyo va Tinch okeani mintaqalarida 99 ta eng xavfli shahar mavjud bo'lib, bu investitsiyalarni 3–5 foizga kamaytirgan. Shuningdek, Kaliforniya (AQSh) misolida yong'inlar va qurg'oqchilik iqtisodiy yo'qotishlarni 16 milliard dollarga yetkazgan (Kasyanenko va boshq., 2023). Rivojlanayotgan mintaqalarda (masalan, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika) resurslar cheklanganligi va siyosiy beqarorlik investitsiya o'sishini 0,5 foizga tushirgan (World Economic Forum, 2022).

Ijtimoiy iqtisodiyot tashkilotlari moliyaviy resurslarga kirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, masalan, loyiha asosidagi moliyalashtirishning qisqa muddatligi va huquqiy cheklovlar. Yevropa mintaqalarida (Fransiya va Ispaniya) ijtimoiy korxonalar uchun qonuniy tan olinmaslik va o'lchov usullarining yetishmasligi rivojlanishni cheklaydi (OECD, 2020). Shu bilan birga, innovatsion tizimlarda stakeholderlarning koordinatsiya qilinmasligi (masalan, AQShning Nyu-York shtatida) investitsiya samaradorligini pasaytiradi (Central New York Regional Economic Development Council, 2023).

Ijtimoiy innovatsiyalar orqali yashil iqtisodiyotga o'tish mintaqaviy rivojlanishni kuchaytirishi mumkin. Masalan, Yevropada ijtimoiy korxonalar chiqindilarni qayta ishlashda 1 million tonnani qayta ishlagan, bu ish o'rinlarini yaratish va atrof-muhitni saqlashga yordam bergan (OECD, 2020). Kaliforniyada yashil sektor (masalan, quyosh va shamol energiyasi) 54 foiz qayta tiklanuvchi energiya ta'minlab, 750 foizga oshgan batareya saqlash imkoniyatini yaratgan.

Raqamli transformatsiya orqali mintaqaviy integratsiya va ish o'rinlari yaratish mumkin. Masalan, Kanada (Toronto) va Singapurda startaplar uchun mentoring dasturlari kompaniyalarni 20 milliard dollarga baholangan darajaga yetkazgan. Shuningdek, Afrika va Osiyo mintaqalarida raqamli platformalar qishloq xo'jaligini yaxshilagan (Guzman va boshq., 2024). Nyu-York shtatida (AQSh) Micron investitsiyasi 9 ming ish o'rni yaratib, raqamli innovatsiyalarni kuchaytirgan (Central New York Regional Economic Development Council, 2023).

Joyga asoslangan siyosatlar orqali imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Masalan, Fransiya va Ispaniyada ijtimoiy iqtisodiyot strategiyalari ish o'rinlarini 7–14 foizga oshirgan. Shuningdek, rivojlanayotgan mintaqalarda (masalan, Janubiy Osiyo) xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni 5–10 foizga oshirish mumkin (Kasyanenko va boshq., 2023). Meyn shtatida (AQSh) tabiiy resurslarga asoslangan innovatsiyalar (masalan, o'rmon mahsulotlari va akvakultura) yuqori maoshli ish o'rinlarini yaratgan (Maine, D.E.C.D., 2019).

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada tadqiqot mavzusi sistematik adabiyot tahlili (SLR) va PRISMA metodologiyasiga asoslangan holda o'rganildi. Kirish qismida belgilanganidek, zamonaviy global tendensiyalar – raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va post-COVID tiklanish jarayonlari – mintaqalar rivojlanishining asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'lib, ular iqtisodiy o'sishning notekisligini kuchaytirayotgani ta'kidlangan. Adabiyotlar sharhida so'nggi yillarda nufuzli ilmiy bazalarda chop etilgan bir qancha tadqiqot ishlari tahlil qilinib, mintaqaviy reziliyentlik, ierarxik innovatsion tizimlar (HRIS) va ijtimoiy innovatsiyalarning roli aniqlangan, bu esa qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tematik jihatdan guruhlashga imkon berdi.

Metodologiya bo'limida saralash va ma'lumotlar sintezi orqali tahlilning shaffofligi ta'minlangan bo'lib, tadqiqot savollari adabiyotlar asosida shakllantirilgan. Natijalar bo'yicha, innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy qiyinchiliklar tengsizlikning kuchayishi (pandemiya davrida 20-30 foiz ish o'rinlari yo'qolishi), ekologik bosim (iqlim o'zgarishi tufayli investitsiyalar 3-5 foizga kamayishi) va moliyaviy to'siqlar (qarz yukining oshishi va institutsional cheklovlar)dan iborat ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, imkoniyatlar yashil transformatsiya (Yevropada chiqindilarni qayta ishlash orqali 1 million tonna resurs tejash), raqamli integratsiya (Afrika va Osiyoda qishloq xo'jaligini yaxshilash) va stakeholderlar hamkorligi (investitsiyalarni 5-10 foizga oshirish) orqali ochilmoqda, bu esa mintaqaviy rivojlanishning 70-80 foizini mahalliy siyosatga bog'laydi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot mintaqalar uchun ikki tomonlama ta'sirga ega: u qiyinchiliklarni kuchaytirsada (masalan, avtomatlashtirish tufayli 30-40 foiz ishchilarning kasb o'zgarishi), imkoniyatlarni ham ochadi (yashil va raqamli innovatsiyalar orqali ish o'rinlarini 7-14 foizga oshirish). Bu natijalar rivojlanayotgan mamlakatlar (masalan, Afrika va Osiyo mintaqalari) uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, inkluziv o'sishni ta'minlash uchun global tendensiyalarni mahalliy kontekstga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Mintaqaviy hukumatlar innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda inkluziv siyosatlarni joriy etishi kerak, masalan, yashil texnologiyalarni rag'batlantirish uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlarini kengaytirish (Yevropa misolida chiqindilarni qayta ishlashdagi muvaffaqiyat kabi). Bundan tashqari, stakeholderlar (davlat, biznes va jamoatchilik) o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali moliyaviy to'siqlarni bartaraf etish lozim, bu esa investitsiyalarni 5-10 foizga oshirishi mumkin. Rivojlanayotgan mintaqalarda (masalan, Janubiy Osiyo va Afrika) raqamli infratuzilmani rivojlantirish va kichik va o'rta korxonalarni (KKO) qo'llab-quvvatlash orqali tengsizlikni kamaytirish tavsiya etiladi, chunki bu sektorlar 80 foiz ish o'rinlarini ta'minlaydi;

Atrof-muhit barqarorligini ta'minlash uchun doira shaklidagi iqtisodiyot modellari (circular economy) keng joriy etilishi kerak, masalan, Kaliforniya va Belgiya tajribasida ko'rsatilganidek, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash orqali iqtisodiy yo'qotishlarni 16 milliard dollarga qisqartirish mumkin. Ijtimoiy innovatsiyalarni kuchaytirish uchun ta'lim va qayta malaka oshirish dasturlari zarur, bu avtomatlashtirish ta'sirida ishdan bo'shatishni 30-40 foizga kamaytiradi va mehnat bozorining moslashuvchanligini oshiradi;

Mazkur tadqiqotning nazariy va deskriptiv xarakterini hisobga olgan holda, empirik modellashtirish orqali mintaqaviy innovatsion tizimlarning dinamikasini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar (Rossiya, Xitoy va Afrika mintaqalari) bo'yicha longitudinal tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalarining ijtimoiy ta'sirini baholash dolzarbdur. Bu yondashuvlar tadqiqot mavzusining bo'shliqlarini to'ldirib, siyosatni shakllantirishda ilmiy asosni mustahkamlaydi.

Yuqoridagi takliflar innovatsion iqtisodiyot mintaqalar uchun barqaror va inkluziv rivojlanish omili sifatida xizmat qilishi mumkin, bu esa global SDG (Barqaror Rivojlanish Maqsadlari) ga erishishga hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayres, J., Izquierdo, A., & Parrado, E. (2025). 2025 Latin American and Caribbean Macroeconomic Report: Regional Opportunities Amid Global Shifts. <http://dx.doi.org/10.18235/0013475>
2. Buyanova, M.E., Averina, I.S., Horuzhaya, E.Y. (2024). Current Trends in the Regional Economic Systems Development: Key Determinants of Economic Growth. In: Sergi, B.S., Popkova, E.G., Ostrovskaya, A.A., Chursin, A.A., Ragulina, Y.V. (eds) Ecological Footprint of the Modern Economy and the Ways to Reduce It. Advances in Science, Technology & Innovation. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-49711-7\\_64](https://doi.org/10.1007/978-3-031-49711-7_64)
3. [Central New York Regional Economic Development Council \(2023\)](https://regionalcouncils.ny.gov/sites/default/files/2023-12/CNYREDC_Strategic_Plan_2023.pdf). THE CNY ASCENT: Reaching New Heights, 2023 STRATEGIC PLAN. [https://regionalcouncils.ny.gov/sites/default/files/2023-12/CNYREDC\\_Strategic\\_Plan\\_2023.pdf](https://regionalcouncils.ny.gov/sites/default/files/2023-12/CNYREDC_Strategic_Plan_2023.pdf)
4. Guzman, J., Murray, F., Stern, S., & Williams, H. (2024). Accelerating innovation ecosystems: The promise and challenges of regional innovation engines. Entrepreneurship and innovation policy and the economy, 3(1), 9-75. <https://doi.org/10.1086/727744>
5. Hepburn, C., Stern, N., Xie, C., & Zenghelis, D. (2023). China's economic development in the new era: Challenges and paths. China Finance and Economic Review, 11(2), 3-22. <https://doi.org/10.1515/cfer-2022-0007>
6. INTERNATIONAL MONETARY FUND (IMF) (2025). Regional economic outlook. Middle East and Central Asia



- : charting a path through the haze. Washington, DC : International Monetary Fund, 2025. <https://www.imf.org/en/Publications/REO/MECA/Issues/2025/04/24/regional-economic-outlook-middle-east-central-asia-april-2025>
7. Kaftan, V., Kandalov, W., Molodtsov, I., Sherstobitova, A., & Strielkowski, W. (2023). Socio-economic stability and sustainable development in the post-COVID era: Lessons for the business and economic leaders. *Sustainability*, 15(4), 2876. <https://doi.org/10.3390/su15042876>
  8. Kasyanenko, S., Kenworthy, P. G., Ruch, F. U., Vashakmadze, E. T., Vorisek, D. L., & Wheeler, C. M. (2023). Investment in emerging market and developing economy regions: trends, prospects, and policy options (No. 10369). The World Bank. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099542403162311587/pdf/IDU0f6e85a340d9b4040ee0828b060b095204a20.pdf>
  9. Maine, D. E. C. D. (2019). Maine Economic Development Strategy 2020–2029: A Focus on Talent and Innovation. Augusta: Maine DECD.
  10. Medeu, A., Askarova, M., Zhakupova, A., Bauyrzhan, U., & Klug, H. (2025). Sustainable Regional Development: A Challenge Between Socio-Economic Development and Sustainable Environmental Management. *Sustainability*, 17(13), 6020. <https://doi.org/10.3390/su17136020>
  11. Morozova, N., Vasileva, I., & Yusupov, I. (2021). Current Trends In Regional Socio-Economic Development. In N. Lomakin (Ed.), *Finance, Entrepreneurship and Technologies in Digital Economy*, vol 103. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (pp. 127-135). European Publisher. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2021.03.17>
  12. OECD (2020), "Regional Strategies for the Social Economy: Examples from France, Spain, Sweden and Poland", OECD LEED Papers, 2020/03, OECD Publishing, Paris. [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/05/regional-strategies-for-the-social-economy\\_0024c164/76995b39-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/05/regional-strategies-for-the-social-economy_0024c164/76995b39-en.pdf)
  13. OECD (2025), Place-Based Policies for the Future, OECD Regional Development Studies, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/e5ff6716-en>
  14. OECD Legal Instruments (2022). Recommendation of the Council on the Social and Solidarity Economy and Social Innovation. <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0472>
  15. Pyo, S., & Choi, S. O. (2025). Regional innovation and economic growth: Empirical insights from FGLS, FE-DKSE, and XGBoost-SHAP approach. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 11(2), 100524. <https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2025.100524>
  16. Ramdas, D. M., & Mahmumd, D.N.A. (2022). DPP30043: REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT.
  17. Stukalo, N., & Simakhova, A. (2021). Global trends in the social economy development. *International economic policy*, (34), 7-22. <https://doi.org/10.33111/iep.eng.2021.34.01>
  18. Tartaruga, I., Sperotto, F., & Carvalho, L. (2024). Addressing inclusion, innovation, and sustainability challenges through the lens of economic geography: Introducing the hierarchical regional innovation system. *Geography and Sustainability*, 5(1), 1-12. <https://doi.org/10.1016/j.geosus.2023.10.002>
  19. Tartaruga, I., Sperotto, F., & Carvalho, L. (2024). Addressing inclusion, innovation, and sustainability challenges through the lens of economic geography: Introducing the hierarchical regional innovation system. *Geography and Sustainability*, 5(1), 1-12. <https://doi.org/10.1016/j.geosus.2023.10.002>
  20. Turgel, I. D., & Chernova, O. A. (2024). COVID-19 and Regional Resilience: Trends, priorities, and the geography of research. *Journal of Safety Science and Resilience*, 5(3), 295-305. <https://doi.org/10.1016/j.jnlssr.2024.04.004>
  21. UNITED NATIONS CONFERENCE ON TRADE AND DEVELOPMENT (UNCTAD) (2024). Economic development in Africa report 2024, Unlocking Africa's trade potential Boosting regional markets and reducing risks. <https://unctad.org/publication/economic-development-africa-report-2024>
  22. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA) (2025). The Sustainable Development Goals Report 2025. New York. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2025/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2025.pdf>
  23. World Economic Forum (2022). Unlocking the Social Economy Towards an inclusive and resilient society (23 May 2022). In collaboration with Deloitte, and in partnership with Catalyst 2030, Euclid Network, Motsepe Foundation and the Schwab Foundation for Social Entrepreneurship. <https://www.weforum.org/publications/unlocking-the-social-economy-towards-an-inclusive-and-resilient-society-davos2022/>
  24. Yan, M. T., & Shkarina, V. S. (2023). Innovative potential of regional economic development: problems and prospects. *Intellect. Innovations. Investments*, (6), 56-65. <http://dx.doi.org/10.25198/2077-7175-2023-6-56>
  25. Zaytsev, A., Dmitriev, N., & Barykin, S. (2023, November). Resource Potential of Socio-Economic Development in the Regional Sustainability Context: the Role of Energy Security and Environment. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1275, No. 1, p. 012041). IOP Publishing. <http://dx.doi.org/10.1088/1755-1315/1275/1/012041>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)